



**NUTQ NUQSONLARINI KELTIRIB CHIQUVCHI SABABLAR VA
DISLALIYA NUTQ NUQSONINI KELIB CHIQUVCHI SABABLARINI TAHLIL QILISH**

*Andijon davlat pedagogika
instituti 2-kurs talabasi
Ro'ziyeva Nozimaxon*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258392>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dislaliya nutq nuqsonining kelib chiqish sabablari va bu kamchilikni rivojlanishi uchun sharoit yaratib beruvchi bir qancha omillar shu bilan birgalikda keltirib chiqaruvchi sabablarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Etiologiya, ontogenez, prenatal, postnatal, natal davrlar, mexanik (organik), funksional sabablar, travma, ochiq prikus, progeniya, prognatiya, fonematik eshitish.

Har bir kasallikning keltirib chiqaruvchi sababchisi bo'ladi. Aynan o'sha sabab malum bir kasallikning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Hozirgi kunda bir qancha chet el va o'zbek olimlari aynan mana shu kasalliklarning sabablarini o'rganib kelmoqda. U har qanday a'zo tuzilishidagi kasallik bo'lishi mumkin. Misol uchun yurak muskullarining yaxshi qisqara olmasligining sababi unga kerakli miqdorda ozuqa moddalarining yetishmasligi yoki eshitishning buzilishi homila paytidagi travma va tug'ilgandan keyingi jarohatlar natijasida bo'ishi mumkin. Bularning barchasi malum bir kamchilikning rivojlanishgi uchun sabab bo'lmoqda.

Shunday ekan nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari ham turlichadir. Shunday ekan nutq sistemasi kasalliklarining etiologiyasi bilan tanishib chiqsak:

- Onaning homiladorlik davrida infeksiyon kasalliklar (qizamiq, sitomegaliya, taksoplazmoz, gripp va h.k.)

- Onaning yurak qon tomir va endokrin tizimdagi buzilishlar, homiladorlikning taksikozlari, homla va ona qonining immunologik to'g'ri kelmasligi, homiladorlik davrida jismoniy va ruhiy jarohatlar, asfiksiyalar, ona qornidagi travmalar.

- Meningit; ensefalit; meningoensefalit; bosh miya travmalari.

- Ona qornidagi tug'ilish va tug'ilgandan keying zararli omillarning ta'siri miya suyuqligi va qobig'ida turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa kelgusida ularning normal rivojlanishini izdan chiqaradi [1.155-b]

Yuqorida keltirilgan sabablarning barchasi nutq nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Homiladorlik payida sodir bo'uvchi travmalar ham ma'lum nutq nuqsonini keltirib chiqarishi mumkin. Nafaqat homila paytida balki bolaning tug'ilish paytida ham bir qancha olgan jarohatlari nutq kasalligining rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bola tug'ilgandan so'ng ham tashqi ta'sirlar natijasida nutq rivojlanishining izdan chiqishi hech gap emas.

Hamma nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Organik harakterdagi nutq buzilishlari.
2. Funksional harakterdagi nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari o'z navbatida ma'lum joyning zararlanishigga ko'ra markaziy va periferik harakterda bo'ladi.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv sistemasini u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy harakterdagi nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulatsion apparatning noto'g'ri tuzilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulatsion organlar innervatsiyasini buzilishidan kelib chiqadi. Periferik harakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolalaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar – bunda nutq jarayonida ishtirok etadigon a'zolar tuzilishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Funksional harakterdagi nutq buzilishlariga: dislaliya, duduqlanish kabi nutq nuqsonlari kiradi [2.22-b]



Quyida barcha nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini ko'rib chiqdik. Barcha nuqsonlarni o'rganish davomida har bittasining o'ziga xos etiologiyasi bo'ladi. Yani yuqoridagi sababni barcha nutq nuqsoni uchun umumiy deb oladigon bo'lsak, endi har bir kamchilikni o'rganish davomida umumiy sababni o'rganilayotgan bitta kasallikka moslagan holatda tahlil qilamiz. Huddi shunday dislaliya nutq nuqsoni uchun sabab bo'lib xizmat qiluvchi bir qancha omillarni ko'rib chiqamiz.

Etiologik belgilariga ko'ra dislaliya ikki shaklga bo'linadi:

1. Mexanik (organik) dislaliya

2. Funksional dislaliya [3.88-b]

Dislaliyaning mana shu ikki shaklining kelib chiqish sababini ko'rib chiqamiz.

Mexanik dislaliya periferik nutq aparatining (til, jag', tanglay, tish) organik buzilishi natijasidir.

Til tagidagi etning (yugancha) kattaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi.

Jag' tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonnormaliklarga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin.

1. Prognatiya – yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi.

2. Progeniya – pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi.

3. Ochiq prikus – yuqori va pastki jag'lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi [3.88-89-b].

Shundan ko'rinib turibdiki tovush va harf hosil qiluvchi har bitta artikulyatsion a'zo ma'lum bir nutqni hosil qilish uchun bir me'yorda ishlashi kerak. Tilning yog'on yoki ingichkaligi, tanglayning noto'g'ri tuzilishi hattoki tishlarning notekis joylashuvi ham dislaliyaning mexanik sabablari bo'lishi mumkin.

Funksional dislaliyada periferik nutq aparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi.

Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oilada nutqning noto'g'ri shakllanishidir [3.89-b].

Bundan ko'rinib turibdiki funksional dislaliyaning asosiy sababi noto'g'ri nutqiy malaka hisoblanadi. Yani unda hech qanday a'zo buzilishidan emas aksincha tashqi tasirlar natijasida yuzaga keladi. Oiladagi noto'g'ri muhit bolaning nutqiga o'zining salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi: oilada bolani erkalatib tarbiyalash ya'ni nonni nanna deb aytirish, oyoq kiyimni tatak deb so'zlatish va shu kabilar. Shu xususda oilada nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxs bo'lsayu, bola uning nutqini tog'ri nutq deb qabul qilib olsa bu ham funksional buzilishning yaqqol namoyonasidir.

Fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bu holda tovushlar differentsiyasi qiyinlashadi. [3.89-b].

Bu ham dislaliyaning yana bir sabablaridan hisoblanadi. Ya'ni bolada eshitishning normada bo'lmasligi ham tovushlarni talaffuz qilinishini qiyinlashtiradi. Aniqrog'i bir necha olimlarning fikriga binoan bolada dislaliya nutq nuqsoni bo'lishi uchun bolada eshituv idroki bo'lishi kerak. Qachonki bolaning eshituv idroki sog'lom bo'lsa shundagina bola atrof muhitdagi informatsiyani qabul qila oladi. Agarda bolada eshituv idroki bo'lmasa u tovushlarni farqlashga qiynaladi va dislalik bola bilan ishlayotgan logoped uchun ham qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham dislaliya bo'lishi uchun eshituv idroki joyida bo'lishi kerak.

Yuqoridagilarning barchasi dislaliya nutq nuqsonining kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Har bitta kasallikni o'rganishdan oldin uning kelib chiqish sababini bilish lozim. Shundagina uning oldini olish uchun chora tadbirlar qo'llash mumkin. Shuning uchun ham har bitta



kamchilikning sababini bilibgina so‘ng unga korreksiya va kompensatsiya ishlarini qo‘llash maqsadga muvoffiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. M.R.Po‘latxo‘jayeva , “Defektologiyaning klinik asoslari” o‘quv qo‘llanma , Toshkent – 2013 .
2. T.B.Filicheva, L.C.Volkova, G.Chirkina, L.Mo‘minova , “Logopediya” o‘quv qo‘llanma, “O‘qituvchi” nashriyoti , Toshkent – 1993 .
3. M.Y.Ayupova , “Logopediya” o‘quv darsligi, O‘zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti , Toshkent – 2019 .